

O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish sohasida davlat nazorati

Nurboyev Mirkomil Sarvar o‘g‘li

Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi Qashqadaryo viloyat davlat inspektori

Annotatsiya: Dastlab O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi Qonuni 1993 yil 28 dekabrda qabul qilingan, keyinchalik 2022 yil 3 noyabrda O‘RQ-800 chi son bilan qaytadan qabul qilingan 31 moddadan iborat.

Kalit so‘zlar: Standartlash, ma’muriy javobgarlik, iqtisodiyotini rivojlantirish, uquqbazarlik, ma’muriy jazo

Asosiy qism.

Standartlashtirish to‘g‘risidagi qonunning 27-modda. Standartlashtirish to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik

Belgilangan tartibda ogohlantirish olganidan keyin standartlashtirish sohasidagi huquqbazarlikni davom ettirganlik yoki bartaraf etmaganlik uchun jismoniy shaxslar qonunchilikka muvofiq ma’muriy javobgarlikka tortiladi. Belgilangan tartibda ogohlantirish olganidan keyin standartlashtirish sohasidagi huquqbazarlikni davom ettirganlik yoki bartaraf etmaganlik uchun yuridik shaxslarga nisbatan ushbu moddaning ikkinchi qismiga muvofiq jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar qo‘llaniladi.

Standartning standartlashtirish to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan majburiy talablariga mahsulotni ishlab chiqaruvchi yoki import qiluvchi tomonidan rioya etilmagan taqdirda, ularga nisbatan:

huquqbazarlik birinchi marta sodir etilganda — standartlarning majburiy talablariga mos bo‘lmagan, realizatsiya qilingan mahsulot qiymatining ellik foizigacha miqdorda jarima tarzidagi moliyaviy sanksiyalar qo‘llaniladi;

- Standartlashtirishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:
- fuqarolarning hayotini, sog‘lig‘ini va mol-mulkini muhofaza qilish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish;
- mahsulotning sifati masalalarida iste’molchilarining huquqlarini va qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini himoya qilish;
- mahsulotning o‘zaro almashuvchanligini va moslashuvchanligini ta’minlash;

- aholining va iqtisodiyot tarmoqlarining ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun mahsulotning sifatini hamda raqobatbardoshlilagini ilm-fan va texnologiyalarning rivojlanish darajasiga qarab oshirish;
- barcha turdagи resurslarni tejashta ko‘maklashish, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini yaxshilash;
- ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik dasturlarni hamda loyihalarni ro‘yobga chiqarish chog‘ida amaliy jihatdan ko‘maklashish;
- O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiyotini rivojlantirishga va ilmiy-texnik taraqqiyotiga ko‘maklashish;
- ishlab chiqariladigan mahsulotning nomenklaturasi va sifati to‘g‘risidagi axborotning ochiqligini hamda ishonchlilagini ta’minalash;
- mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotning xorijiy bozorlarga olib chiqilishiga ko‘maklashish;
- o‘lchash birligini ta’minalash.

Standartlashtirish prinsplari

- Standartlashtirishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:
- qonuniylik;
- milliy standartlarni ishlab chiqishda manfaatdor taraflarning o‘zaro kelishuvi;
- xolislik;
- standartlardagi takrorlanishlarning va ziddiyatlarning oldini olishga qaratilgan hamjihatlik;
- mahsulot kelib chiqqan mamlakatdan va (yoki) joydan, shuningdek ishlab chiqaruvchining mulk shaklidan qat’i nazar, mahsulotga nisbatan kamsituvchi munosabatga yo‘l qo‘ymaslik;
- ochiqlik va shaffoflik.

Bundan tashqari standartlashtirish qoidalarini buzganlik uchun MJTKning 212-moddasi bilan ma’muriy javobgarlik belgilangan.

212-modda. Texnik reglamentlarga yoki standartlarning majburiy talablariga rioya etmaslik

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan ikki baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — ikki baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Xuddi shunday huquqbazarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — uch baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

(Standartlar va o‘lchov vositalarini nazorat qiluvchi davlat inspektorlarining tekshirilgan mahsulot texnik reglamentlarga yoki standartlarning majburiy talablariga nomuvofiq bo‘lgan hollarda uni ishlab chiqarishni taqiqlash yoki realizatsiya qilishni (yetkazib berishni, sotishni), undan foydalanishni (uni ishlatishni) to‘xtatib qo‘yish to‘g‘risidagi ko‘rsatmalarini bajarmaslik —

bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan uch baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish —

bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2022 yil 3 noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish to‘g‘risidagi O‘RQ -800 sonli Qonuni